

## **SHAXSNING IJTIMOIYLASHUVIDA TARBIYANING AHAMIYATI**

**Mustafayev Nurbek**

Termiz davlat pedagogika instituti talabasi

**Annotatsiya** Shaxs tushunchasi bu keng qamrovli tushuncha hisoblanadi. Har bir inson tug`ilibdiki bu individdir. Lekin uning shaxs sifatida yetilishiga uning tarbiya asosida o`sib rivojlanishi katta ahamiyatga ega. Yosh bola bir yoki ikki yosh paytidan unga tarbiya berish boshlanadi. Yetti yoki sakkiz yosh paytidan esa uning yoniga ta`lim ham qo`shiladi. Har ikkalasi yillar davomida teng ravishda berib boriladi. Bilmagan narsalari tushuntirilib, qiziqishlariga asoslanib unga kasb yoki hunarga yo`naltirish beriladi. Shu paytdan boshlab bola o`z kelajagiga birinchi qadamni tashlaydi. Endi u omma ichida o`zini qanday tutishlar va qanday rivojlanishlar haqida fikr yurita boshlaydi. Agar bolani yosh paytidan odamlar ichida ko`proq olib yurilsa u tez ijtimoiy aloqaga kirishishi oson boladi va u kata shaxs bo`lib yetishadi.

**Kalit so`zlar:** Shaxs, individ, individuallik, tarbiya, ta`lim, ijtimoiylashuv, intellektual, biologik va ijtimoiy qonuniyatlar.

Tirik mavjudotlar orasida inson eng murakkabidir. Odamzod tug`ilganidan so`ng, tashqi olam bilan uzviy bog`liq bo`ladi. Vaqt o`tishi bilan uni tushunishga, o`rganishga harakat qila boshlaydi. Bunda turli xil davrlarni bosib o`tadi. Asta-sekinlik bilan o`zini ham anglay boshlaydi. Insonning mohiyatini tushunishga harakat qilish jarayonida u nafaqat tashqi, balki ichki-yashirin xususiyatlarga ham ega ekanligini, ular birlashgan holda inivid, shaxs, individuallik tushunchalarida aks etuvchi muayyan obrazni shakllantiradi. Individ-lotinchcha “individium” degan so`zidan kelib chiqqan bo`lib, “bo`linmaydigan” degan ma`noni anglatuvchi bu atama mustaqil yashaydigan tirik vujud, har bir shaxsni bildiradi. Individ atrofimizdagi barcha odamlardir. Ya`ni, kasbi, aqliy faoliyati, sog`lomligi yoxud imkoniyati cheklanganligidan qat`iy nazar individ hisoblanadi. Har bir mavjudot o`sib-ulg`aygani sari u o`zgarib boradi. Odam ham mukammalashib, individlik bosqichidan mustaqil shaxs va individuallikka erisha boshlaydi. Bu jarayon ijtimoiy-tarixiy xususiyatga ega bo`lib, ibridoiv davrga xos bo`lgan individlik evolutsiya natijasida shaxsga aylanadi. Shaxs - alohida individ, mohiyatan yaxlit ijtimoiy-axloqiy olam. U o`zida inson mohiyatini , uning mavjudot sifatidagi qadriyatini mujassam etadi.Bunda ijtimoiy munosabat, muloqat, muomala shakllangan va yangi avlod uchun tayyor qolip vazifasini o`taydi.

Shaxs, mohiyati ko`ra, madaniylashgan, ong, aql orqali faoliyatini boshqarish imkoniyatiga ega bo`lgan, turmush tarzi va tajribaga asoslangan muayyan avlodlar vakili. Shaxs fenomeni inson olimining butun murakkabliklarini o`zida mujassam etadi. Uni har tomonlama o`rganish maqsadida turli davrlarda tadqiqot olib borilgan. Ayniqsa, sharqda u yuksak axloqiy-ma`naviy me`yorlar orqali tushunilgan va oliy xilqat, bebahoh qadriyat deb hisoblangan. Inson shaxs sifatida komillikka intiladi, hayot mazmunini boyitadi, shu asosda kishilik jamiyatining go`zal va faravon bo`lishiga ehtiyoj sezadi. Shaxsning hayot tarzi bevosita jamiyat hayotiga daxldor va hayot ne`matlaridan to`la foydalanishga haqli. SHaxs tushunchasi inson tushunchasining yuksak ko`rinishi, oliy maqomidir. Har qanday odam tabiiy mavjudligi, yashash huquqi va hayot qadriyatiga ega bo`lgan jonzotdir. Shaxsning eng muhim jihat-bu uning individualligidir. Individuallik- muayyan narsa va hodisa, shaxs va jonivorning o`zigagina xos, betakror, xususiy belgidir. Belgi sifatlarining o`ziga xosligi bilan individuallik umumiylikka qarama-qarshi. Dastlab individuallik antik davrda yunon faylasuflari Levkipp va Demokrit tomonidan muayyan shakl va mazmunga, ya`ni o`ziga xos belgilarga ega bo`lgan narsa va hodisalarga, jumladan, atom yoki individ [ya`ni, bo`linmas] kabilarga xos xususiyatlarni aniqlash jarayonida ma`lum bo`lgan. Qadimgi Rim faylasufi Seneka individuallik tushunchasini yanada takomillashtiradi. Individuallik o`ziga xos xususiyatlarni va mazmunini yo`qotmay turib, boshqa bo`laklarga bo`linmaydigan aniq bir narsa [mavjudot] ekanligini e`tirof etgan. O`rta arslar falsafasida individuallik inson shaxsi tushunchasini ifodalagan. XVII asrda individuallik bilan bog`liq fikrmulohazalar nemis faylasufi Leybnits ta`limotida atroflicha rivojlantiriladi. Individuallik nemis adibi I. V. Gyote ijodida ham o`zi ifodasini topdi. Individuallik romantizm dunyoqarashi uchun ham xos xususiyatdir. Insondagi individuallikuning hayoti, faoliyatining barcha sohalarida namoyon bo`ladigan o`ziga xos sifatlari hisoblanadi. Individuallik alohida holda olinganda insonning aniq xatti-harakati, malakasi, layoqati, odat va ko`nikmalarini ifoda etadi. Uning tarkibidagi xarakter, temperament, iroda, iqtidor, qobiliyat va shu kabilalar kirib, ular takrorlanmasdir. Ya`ni bir odamga xos bo`lgan iqtidor, qobiliy, emotsiya, mimika, xarakterlar boshqa bir odamda aynan uchramaydi. SHu sababdan ham ular individualdir.

Tarbiya — shaxsda muayyan jismoniy, ruhiy, axloqiy, ma`naviy sifatlarni shakllantirishga qaratilgan amaliy pedagogik jarayon; insonning jamiyatda yashashi uchun zarur bo`lgan xususiyatlarga ega bo`lishini ta`minlash yo`lida ko`riladigan chora tadbirlar yig`indisi. Tarbiya insonning insonligini ta`minlaydigan eng qadimiy va abadiy qadriyatdir. Tarbiyasiz alohida odam

ham, kishilik jamiyati ham mavjud bo'la olmaydi. Chunki odam va jamiyatning mavjudligini ta'minlaydigan qadriyatlar Tarbiya tufayligina bir avloddan boshqasiga o'tadi. Pedagogik adabiyotlarda "Tarbiya" atamasi keng va tor ma'nolarda ishlataladi. Keng ma'noda tarbiya inson shaxsini shakllantirishga, uning jamiyat ishlab chiqarishi va ijtimoiy, madaniy, ma'rifiy hayotida faol ishtirokini ta'minlashga karatilgan barcha ta'sirlar, tadbirlar, harakatlar, intilishlar yig`indisini anglatadi. Bunday tushunishda tarbiya faqat oila, mакtab, bolalar va yoshlar tashkilotlarida olib boriladigan tarbiyaviy ishlarni emas, balki butun ijtimoiy tuzum, uning yetakchi g`oyalari, adabiyot, san'at, kino, radio, televideniye va boshqalarni ham o'z ichiga oladi. Shuningdek, keng ma'nodagi tarbiya tushunchasi ichiga ta'lif va ma'lumot olish ham kiradi. Tor ma'noda tarbiya shaxsning jismoniy rivoji, dunyoqarashi, ma'naviy axloqiy qiyofasi, estetik didi o'stirilishiga yo'naltirilgan pedagogik faoliyatni anglatadi. Buni oila va tarbiyaviy muassasalar hamda jamoat tashkilotlari amalga oshiradi.

Ta'lif va ma'lumot olish tor ma'nodagi tarbiya ichiga kirmaydi. Lekin har qanday tarbiya ta'lif bilan chambarchas bog'liq holdagina mavjud bo'ladi. Chunki ta'lif va ma'lumot olish jarayonida shaxsning faqat bilimi ko'payibgina qolmay, balki axloqiy-ma'naviy sifatlari qaror topishi ham tezlashadi. Ijtimoiylashuv uzoq davom etadigan murakkab jaravon. Chunki har qanday jamiyat rivojlanish jarayonida ijtimoiy va axloqiy qadriyatlar, ideallar, axloqiy me`yorlar va qoidalar tizimini ishlab chiqadi, har bir bola yuqoridagi qoidalarni qabul qilib, o'rganib mazkur jamiyatda yashash, uning a`zosi bo'lish imkoniyatiga ega bo'ladi. Buning uchun jamiyat u yoki bu shaklda shaxsga maqsadga muvofiq ta'sir etadi.

## REFERENCES

1. P.I.Ivanov.M.E.Zufarova Umumiyl Psixologiya
2. G'oziyev E "Umumiyl psixologiya" 1-kitobi Toshkent 2004
3. Berdievich, IB, & Nazinovich, SDND (2021). Dars va uning tahlili ta'lif sifatini oshirish omili sifatida. Yevropa olimlari jurnal , 2 (1), 42-45.
4. Csanady, M., Sepp, R., Blazso, P., Polgar, N., Racz, P., Jebelovszki, E., ... & Forster, T. (2004). 22 Low prevalence of beta myosin heavy chain gene mutations in Hungarian patients with hypertrophic cardiomyopathy. European Journal of Heart Failure Supplements, 3, 2-2.
5. Haydarova, S., & Nurqulova, G. (2023). EMERGENCE OF AGGRESSION AND NEGATIVISM IN PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF

ADOLESCENT PERIOD. International Bulletin of Engineering and Technology, 3(10), 62-64.

6. qizi Imonova, MB (2023). MUSIQANING INSON HISSIYOTIGA TASIRI. National Scientific Research International Journal natijalari , 2 (3), 156-161.

7. Иманов, Б., & Имонова, М. (2021). Развитие творческих способностей учеников при выполнении проблемных экспериментов по физике с помощью инновационных технологий. Общество и инновации, 2(2), 222-227.

8. Imonova, M. B. (2023). Oila tinchligi-jamiyat faravonligi asosi. Finland academic research science publisher, 1148-1151.

9. Имонова, М., & Тожиева, Д. (2023). Роль сиблинговых отношений в когнитивном развитии детей. Традиции и инновации в исследовании и преподавании языков, 1(1), 447-453.

10. Имонова, М. (2023). Musiqiy tarbiya-qudratli quroldir yohud musiqiy tarbiyaning shaxs shakllanishiga tasiri. Современные тенденции психологической службы в системе образования: теория и практика, 1(1), 35-37.

11. Имонова, М., & Таджиева, Д. (2023). Boshlangich sinf oquvchilarida milliy tarbiyani pedagogik va psixologik rivojlanishi qonuniyatlari. Современные тенденции психологической службы в системе образования: теория и практика, 1(1), 74-76.

12. Иманова, М. Б. (2021). ШАХС ХАРАКТЕРИ АКЦЕНТУАЦИЯСИ ВА ДЕСТРУКТИВ ХУЛҚ-АТВОР. Academic research in educational sciences, 2(11), 1399-1403.

13. Imanov, B. (2023). NEGATIVE FACTORS AFFECTING THE QUALITY OF EDUCATION AND WAYS TO ELIMINATE THEM. Science and innovation, 2(B3), 355-358.

14. Имонова, М. Б. (2023). ВАЖНОСТЬ СЕСТРОВЫХ ОТНОШЕНИЙ В ЛИЧНОМ РАЗВИТИИ. FORMATION OF PSYCHOLOGY AND PEDAGOGY AS INTERDISCIPLINARY SCIENCES, 2(22), 120-123.

15. Imonova, M. B. (2023). Causes of Suicide Tendency in Adolescents. Journal of Discoveries in Applied and Natural Science, 1(1), 62-67.

16. Иманов, Б., & Иманова, М. Б. Қ. (2021). ДАРС ТУЗИЛМАСИ ВА УНГА ТАЙЁРГАРЛИК. Academic research in educational sciences, 2(5), 1158-1162.

17. Имонова, М. Б. (2023). РОЛЬ ОТНОШЕНИЯ СИБЛИНГА В ПРОБУЖДЕНИИ МОТИВОВ ОБУЧЕНИЯ ДЕТЕЙ. Евразийский журнал социальных наук, философии и культуры, 3(10), 101-104.

18. Imanov, B. B. (2023). O'QUVCHILARNING TABIATDA SODIR BO'LAYOTGAN FIZIK JARAYONLARNI ANGLAB ETISHDA TAJRIBALARING O'RNI. Interpretation and researches, 2(1).
19. Imanov, B. (2023). NEGATIVE FACTORS AFFECTING THE QUALITY OF EDUCATION AND WAYS TO ELIMINATE THEM. Science and innovation, 2(B3), 355-358.
20. Imanov, B. (2023). MALAKALI MUTAXASSIS SIFATLI TA'LIM VOSITASI SIFATIDA. Namangan davlat universiteti Ilmiy axborotnomasi, (6), 855-859.
21. Imanov, B. B. (2021). Competences in the quality of education and their organization. ASIAN JOURNAL OF MULTIDIMENSIONAL RESEARCH, 10(5), 419-424.
22. Imanov, B. B. (2021). Lesson and its analysis as factor of increasing the quality of education. European scholar Journal. Available online at//www. scolarzest. com, 1.
23. Karimov, R. R., Imanov, B. B., Karimov, Y. Z., & Abulova, M. R. K изледованию иенусообразному рабочим fgenom mini-izmelchitelya для губых кормов. Toshdtu news" magazine, Tashkent, 123-126.
24. Mahmudov, YG, & Imanov, BB (2021). Dars sifati ko'satkichlari. Osiyo ko'p o'lchovli tadqiqot jurnali , 10 (10), 653-656.
25. Mahmudov, Y. G., & Imanov, B. B. (2021). Lesson quality indicators. Asian Journal of Multidimensional Research, 10(10), 653-656.
26. Nurqulova, G. (2023). PSYCHOLOGICAL CONDITIONS FOR STIMULATING COGNITIVE ACTIVITY IN SCHOOLCHILDREN OF YOUNGER AGE. Modern Science and Research, 2(12), 1262-1265.
27. Nurkulova, G. (2022). THE PSYCHOLOGY OF SUBORDINATE BEHAVIOR. Emergent: Journal of Educational Discoveries and Lifelong Learning (EJEDL), 3(12), 204-207.
28. Nurqulova, G. ., & Saydaliyeva, M. (2023). PSYCHOLOGICAL METHODS OF EDUCATION AND DEVELOPMENT ACCORDING TO THE CHILD'S TEMPERAMENT. International Bulletin of Engineering and Technology, 3(10), 92–95.
29. Summers, D., Kushzhanov, N., Almurzayeva, B., Yesengulova, M., Abdirakhmanova, Y., Safarov, R., & Imanov, B. MORAL DILEMMAS IN DIGITAL & FOREIGN WORLD. BULLETIN OF NATIONAL ACADEMY OF SCIENCES OF THE REPUBLIC OF KAZAKHSTAN ISSN 1991-3494 Volume 2, Number 372 (2018), 68–74.
30. Xudoyqulova, S. (2023). CHILDREN OF PRESCHOOL AND PRIMARY SCHOOL AGE FORMATION OF BEHAVIOR. Modern Science and Research, 2(12), 457-461.

31. Худойқурова, Ш. Ҳ., & Шарафутдинова, Ҳ. Г. (2021). ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ИЗУЧЕНИЯ ПОВЕДЕНИЯ И ЭМОЦИЙ ДЕТЕЙ В СЕМЬЕ. Экономика и социум, (4-2 (83)), 666-671.
32. Худойқурова, Ш. Ҳ., & Шарафутдинова, Ҳ. Г. (2021). THEORETICAL BASIS OF STUDYING THE BEHAVIOR AND EMOTIONS OF CHILDREN IN THE FAMILY. Экономика и социум, (4-2), 666-671.
33. Xudoqulova , S. (2023). SUBJECT: PSYCHOLOGICAL APPEARANCES OF THE EMOTIONAL STATE IN ADOLESCENTS. Educational Research in Universal Sciences, 2(17), 974–977.
34. XUDOYQULOVA, S., & SAYDALIYEVA, M. (2023). The Role of Parental Psychology in the Formation of a Particular Religious Beliefs in A Child. Eurasian Scientific Herald, 21, 54-58.